


TDSHU huzuridagi Sharq madaniyati va merosini tadqiq etish ilmiy-tadqiqot markazining 2025-2026-o'quv yilidagi faoliyatiga doir HISOBOTI

I. Ilmiy loyihalarni amalga oshirishga doir ishlar

1. Sharq madaniyati va merosini tadqiq etish ilmiy-tadqiqot markazida 2025-2026-yillarga mo'ljallangan **IL-9224094083** raqamli "Kulolchilik va pichoqchilik san'atini 3D virtual muzeyi: innovatsion ta'lim va madaniy merosni raqamli saqlash imkoniyatini yaratish" nomli innovatsion loyiha muvaffaqiyatli yakunlandi. Loyiha natijalari yuzasidan hisobot topshirildi va <https://artisan3d.tsuos.uz/> nomli sayt ishga tushirildi.

2. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi jami **6** ta ilmiy amaliy va fundamental **loyihalar** topshirdi:



1. "Markaziy Osiyo hududida turli tarixiy davrlarda etnobotanik bilimlarning rivojlanishi" (*fundamental*)
2. "Markaziy Osiyo hududida turli tarixiy davrlarda dunyoviylik g'oyalari rivojlanishi" (*fundamental*)
3. "Askiya – so'zamollik san'ati bilan bog'liq audiovizual asarlar to'plamini yaratish" (*amaliy*)
4. "Alisher Navoiy "Xamsa" devonining ingliz tiliga tarjimasini va dostonlarning parallel korpusga asoslangan elektron platformasini yaratish" (*innovatsion*)
5. "Kitob at-tavhid" asarining Kembrij universitetida saqlanayotgan qo'lyozmasini o'rganish, raqamlashtirish hamda faksimile nusxasini yaratish" (*amaliy*)
6. "Temuriylar davri manbalari elektron platformasini yaratish" (*amaliy*)

Ushbu loyihalardan "*Kitob at-tavhid*" asarining Kembrij universitetida saqlanayotgan qo'lyozmasini o'rganish, raqamlashtirish hamda faksimile nusxasini yaratish" nomli ilmiy loyiha moliyalashtirishga tavsiya etildi. "*Temuriylar davri manbalari elektron platformasini yaratish*" loyiha esa hozirgi kunda ilmiy ekspertiza jarayonida turibdi.

3. Bugungi kunda markazda "*Markaziy Osiyo tarixshunosligi va manbashunosligi: tadqiqotlar va tahlillar*", "*Muqaddas xondan so'fiy sultongacha: Mo'g'ullardan keyingi Markaziy Osiyoda suverenitet*", "*Amir Temur va Temuriylar Renessansi:*

davlat boshqaruvi, diplomatiya va madaniy meros” nomli **3** ta ichki loyihani amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

II. Ilmiy konferensiyalarni tashkil etishga doir ishlar;

Markaz 2025-2026-o‘quv yili davomida turli xalqaro va respublika **konferensiyalarni** tegishli oliy maktablar va kafedralar bilan hamkorlikda tashkil qilish jarayonlarida ishtirok etdi:

1. 2025-yil 20-sentabr kuni TDSHuda “**Tarixiy voqe'liklar va falsafiy ideallar: Fanlar o‘rtasidagi dialoglar**” mavzusiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada qatnashildi. Konferensiya davomida fanlararo integratsiyani rivojlantirish, ilmiy hamkorlikni kengaytirish va tajriba almashishning dolzarb masalalari muhokama qilindi. <https://tsuos.uz/tdshuda-tarixiy-voqe'liklar-va-falsafiy-ideallar-fanlar-ortasidagi-dialoglar-mavzusida-xalqaro-ilmiy-amaliy-konferensiya-bolib-otdi/>



2. 2025-yil 10-oktyabr kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda “**O‘zbekiston-Ozarbayjon adabiy aloqalar va hamkorlik istiqbollari**” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya qatnashildi. <https://tsuos.uz/tdshuda-ozbekiston-ozarbayjon-adabiy-alloqalar-va-hamkorlik-istiqbollari-mavzusida-xalqaro-ilmiy-amaliy-konferensiya-otkazildi/>



3. 2025-yil 16 – oktabr kuni TDSHuda «**Alp Er To‘nga avlodlari – Qoraxoniylar: Turkiy dunyo va Islom olami Qoraxoniylar davrida**» mavzusida

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirok etildi. Mazkur nufuzli ilmiy anjuman O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Turkiy davlatlar tashkiloti, Toshkent xalqaro universiteti hamda O'zbekiston milliy media birlashmasi hamkorligida tashkil etildi. <https://tsuos.uz/tdshuda-alp-er-tonga-avlodlari-qoraxoniylar-turkiy-dunyo-va-islom-olami-qoraxoniylar-davrida-mavzusida-xalqaro-ilmiy-amaliy-konferensiya-otkazildi/>



4. 2026-yil 9-fevral kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida o'tkazilgan "***Alisher Navoiy va Sharq Renessansi***" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada universitet professor-o'qituvchilari va ilmiy tadqiqotchilari faol ishtirok etdi. <https://t.me/tsuos/22366>



5. 2026-yil 25-aprel kuni tashkil etilgan "***Sharq mutafakkirlari yozma merosining ilmiy, falsafiy, ma'naviy tafakkurdagi o'rn***" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida Sharq mutafakkirlarining ilmiy-ma'rifiy merosi, qo'lyozma manbalar, ularning zamonaviy ilm-fan va ma'naviy taraqqiyotdagi ahamiyatiga bag'ishlangan ma'ruzalar tinglandi. Konferensiya doirasida yozma



raqamlashtirishning dolzarb

merosni saqlash, tadqiq etish va yo'nalishlari muhokama qilindi.

<https://t.me/tsuos/23545>

6. 2026-yil 30-may kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida o'tkazilgan "***Tarixiy manbashunoslik, tarixnavislik, tarix tadqiqotlari metodlari va metodologiyasining dolzarb masalalari***" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyada tarix fanining nazariy-metodologik muammolari, tarixiy manbalarni tahlil qilish usullari, tarixnavislikning zamonaviy tendensiyalari hamda tarixiy tadqiqotlarda fanlararo yondashuvlarni qo'llash masalalariga bag'ishlangan ilmiy ma'ruzalar bilan ishtirok etildi. <https://t.me/tsuos/24329>






III. Ilmiy nashrlarga doir ishlar;

Markazda 2025-2026-o'quv yilida 2 ta xalqaro konferensiya to'plami va 4 ta monografiya nashr qilindi.

Konferensiya materiallari:





1. International Scientific-Practical Conference "Historical realities and philosophical ideals: dialogues across disciplines"[Text]/ – Tashkent: Tashkent State University of Oriental Studies, 2025. -698 p. (Editorial board: B.Zokirov, Sh.Yodgorov, M.Khubbaliyeva, M.Turdikhujayeva, M.Nabiyev, R.Isakov, G.Abduvakhobova, Sh.Abdurasulov, G.Jumayev)



2. Alp Er To'nga avlodlari – Qoraxoniylar: Turkiy dunyo va Islom olami Qoraxoniylar davrida [Matn] / f.f.d., prof. Q.SH. Omonovning umumiy tahriri ostida. – T.: "TDSHU" nashriyoti, 2025. – 528 b. (Nashrga tayyorchilar: PhD B.Zokirov, PhD Sh. To'laganova)



Monografiyalar:

1. Kulolchilik va pichoqchilik san'atini 3D virtual muzeyi: innovatsion ta'lim va madaniy merosni raqamli saqlash imkoniyatini yaratish. Monografiya// – Toshkent: "TDSHU" nashriyoti, 2026. – 245 b. (Mualliflar jamoasi)
2. Zokirov B. "Safarnoma" turkumidagi asarlarda o'zbek xonliklariga oid etnotoponimlar [Matn]: monografiya. – Toshkent: TDSHU, 2026. – 187 b.
3. Madraimov A. Amir Temur va temuriylar davri tarixi V.V.Bartold va A.Z.To'g'anning ilmiy merosida. . – Toshkent: Metodist, 2026. – 308 b.
4. Madraimov A., Madraimov A. Temurbek – Turon sultoni (voqea-xotiralar). – Toshkent: Metodist, 2026. – 488 b.





IV. Markaz tadqiqot yo'nalishlariga doir tadbirlarda ishtirok etish;

O'quv yili davomida Markazning tadqiqot yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda bir qator tadbirlarda ishtirok etildi. Xususan, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining ilmiy seminar va turkum anjumanlarda, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, O'z RFA tadqiqot institutlarining Markaz ilmiy tadqiqot yo'nalishlariga doir ilmiy-konferensiyalari, davra-suhbatlari va ilmiy anjumanlarida onlayn va oflayn shaklda ishtirok etildi.

2025-yilning 20-noyabr kuni Samarqand shahrida bo'lib o'tgan "***Ipak yo'li moddiy madaniy merosini o'rganish va saqlashning dolzarb masalalari***" II xalqaro ilmiy amaliy simpoziumda universitetda amalga oshirilayotgan turizm sohasidagi loyihalar natijalariga bag'ishlangan ilmiy ma'ruzalar bilan ishtirok etildi.

https://t.me/sharq_xabar/44189



2026-yil 25-aprel kuni TDSHUda tashkil etilgan “**Sharq mutafakkirlari yozma merosining ilmiy, falsafiy, ma’naviy tafakkurdagi o’rni**” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida Markazda allomalarning ilmiy-ma’rifiy merosi, qo’lyozma manbalar, yozma merosni saqlash, tadqiq etish va raqamlashtirishning dolzarb yo’nalishlari bo’yicha ma’ruza qilindi.



**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI “SHARQ MADANIYATI VA MEROSINI TADQIQ
ETISH” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**



Sharq madaniyati va merosini tadqiq etish ilmiy-tadqiqot markazining allomalar ilmiy merosini o’rganishga doir ishlari xususida

Bexzodjon Zokirov











Toshkent - 2026

2026 yil 4–7 may kunlari Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan o’tkazilgan “**Buyuk Sharq Renessansi**” xalqaro olimpiadasi doirasida ishtirokchilarning tarix, geografiya, adabiyot, san’at, islom sivilizatsiyasi hamda tarixiy obidalar bo’yicha bilimlarini baholashda ishtirok etuvchi ilmiy qo’mita a’zosi sifatida ishtirok etildi.




2026-yilning 17-18-iyun kunlari Samarqand shahridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida “**Islom sivilizatsiyasi mutafakkirlari**” (SSIC 2026) VI xalqaro seminarida ishtirok etildi. Malayziya va O’zbekistonning nufuzli oliy ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari, xalqaro tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan mazkur anjuman doirasida islom sivilizatsiyasi merosi, ilm-fan taraqqiyoti, madaniy almashinuv jarayonlari, zamonaviy jamiyat rivojida tarixiy tajribaning

ahamiyati hamda istiqboldagi ilmiy hamkorlik masalalari yuzasidan ma'ruzalar va muhokamalar olib borildi.



«6th SEMINAR ON SCHOLARS OF ISLAMIC CIVILIZATION (SSIC 2026)»



**KNOWLEDGE,
WISDOM,
AND PROGRESS:**

**The Role of Islamic Civilization in the
History and Future of Humanity**

17-18th JUNE
SAMARKAND – 2026

V. Markaz faoliyati va yurtimizdagi ilm-fan sohasidagi ishlar yuzasida OAV tahliliy materiallar chop qilish;

O'quv yili davomida Markaz tomonidan mamlakatimizda oliy ta'lim, fan, innovatsiyalar hamda madaniy meros sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida ommaviy axborot vositalarida qator ilmiy-tahliliy maqolalar e'lon qilindi. Xususan, "Ilmiy klaster va raqamli transformatsiya – Yangi O'zbekiston oliy ta'limi taraqqiyoti garovi" nomli ilmiy-tahliliy maqolasi O'zbekiston Milliy axborot agentligi – O'ZA rasmiy axborot portalida e'lon qilindi. Mazkur maqolada oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ilmiy klaster tizimini joriy etish, fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish hamda raqamli

transformatsiyaning ilmiy taraqqiyotdagi ahamiyati tahlil qilindi. Batafsil: https://uza.uz/uz/posts/ilmiy-klaster-va-raqamli-transformatsiya-yangi-ozbekiston-oliy-talimi-taraqqiyoti-garovi_849450

"**Milliy madaniy meros va raqamli taraqqiyot uyg'unligi**" nomli ilmiy-tahliliy maqolasi ham O'zA axborot portalida chop etildi. Unda milliy madaniy merosni raqamlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt asosida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, madaniy merosni saqlash va ommalashtirishning dolzarb masalalari yoritildi. Batafsil: https://uza.uz/uz/posts/milliy-madaniy-meros-va-raqamli-taraqqiyot-uygunligi_835061



VI. 2025-2026-o'quv yilida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar

Innovatsion rivojlanish agentligi hamda boshqa grant dasturlari doirasida Sharq madaniyati, tarixi, yozma merosi va raqamli gumanitar fanlar yo'nalishlarida fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy loyihalarni ishlab chiqish hamda moliyalashtirish tanlovlariga taqdim etish.

"Temuriylar davri manbalari elektron platformasi" hamda "Kitob at-tavhid" qo'lyozmasini raqamlashtirish va faksimile nusxasini yaratish loyihalarini amalga oshirish, ularning ilmiy natijalarini amaliyotga joriy etish.

Markaz huzurida tarix, manbashunoslik, sharqshunoslik va madaniy meros yo'nalishlari bo'yicha jamoaviy monografiyalar, ilmiy to'plamlar hamda o'quv adabiyotlarini nashr etish ishlarini davom ettirish.

Sharq qo'lyozmalari, tarixiy hujjatlar va madaniy meros obyektlarini o'rganish, tavsiflash hamda raqamlashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kengaytirish, elektron ma'lumotlar bazalarini shakllantirish.

Xorijiy universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlikda qo'shma ilmiy loyihalar, konferensiyalar, seminarlar tashkil etish va xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish.

"IQ Lab – Iqtidorli qo'lyozmashunoslar laboratoriyasi" faoliyatini takomillashtirish, iqtidorli talabalar, magistrantlar va doktorantlarni qo'lyozmalarni

o'qish, transliteratsiya, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot metodologiyasi bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga jalb etish.

Markaz tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalar, davra suhbatlari, seminarlar hamda mahorat darslarini tashkil etish va ularda faol ishtirok etish.

O'zbekiston Milliy axborot agentligi (O'zA), respublika ommaviy axborot vositalari hamda ilmiy-ommabop nashrlarda oliy ta'lim, fan, innovatsiyalar, tarixiy-madaniy meros va raqamlashtirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy-tahliliy maqolalar, ekspert xulosalari va sharhlarni muntazam e'lon qilib borish.

Markaz ilmiy faoliyati natijalarini xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalarida indekslanuvchi jurnallarda e'lon qilish, ilmiy mahsulotlarni tijoratlashtirish hamda ularni ta'lim va madaniyat muassasalari faoliyatiga joriy etish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish.

**TDSHU huzuridagi Sharq madaniyati va merosini
tadqiq etish ilmiy-tadqiqot markazi direktori**

PhD B.I.Zokirov